

PARAZIT KASALLIKLARGA QARSHI KURASHISHDA ZAMONAVIY TIBBIYOT VA XALQ TABOBATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ismoilov Komil Tuygunovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tibbiy biologiya va genetika kafedrasii
asistenti, O‘zbekiston.

Abdullayeva Sanobar G‘ayratjon qizi

Ergashev Umid Esan o‘g‘li

Saydullayeva Shaxzoda Sunatilla qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalari, O‘zbekiston

Anotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tibbiyotning parazitlar infeksiyalarini aniqlash, davolash va oldini olishdagi o‘rni hamda xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Molekulyar diagnostika, yangi avlod dori vositalari va profilaktik strategiyalarning samaradorligi ilmiy asoslari hamda parazit kasalliklar bilan kurashishda xalq tabobatining o‘rni, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy tibbiyot bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Dorivor o‘simliklar, tabiiy vositalar, an’anaviy davolash usullarining samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida xalq tabobatining istiqbollari baholanadi.

Kalit so‘zlar: Xalq tabobati, parazitlar, fitoterapiya, gelmintlar, dorivor o‘simliklar, diagnostika, profilaktika,

THE MODERN SIGNIFICANCE OF TRADITIONAL AND CONTEMPORARY MEDICINE IN THE CONTROL OF PARASITIC DISEASES

Ismoilov Komil Tuygunovich

Assistant, Department of Medical Biology and Genetics, Samarkand State Medical
University, Uzbekistan.

Abdullayeva Sanobar G'ayratjon qizi

Ergashev Umid Esan o'g'li

Saydullayeva Shaxzoda Sunatilla qizi

Students of Samarkand State Medical University, Uzbekistan.

Abstract: This article analyzes the role of modern medicine in the diagnosis, treatment, and prevention of parasitic infections, as well as examines international experience. The scientific basis of the effectiveness of molecular diagnostics, next-generation pharmaceuticals, and preventive strategies is discussed.

In addition, the role of traditional medicine in combating parasitic diseases, its historical roots, and its integration with modern medicine are analyzed. The effectiveness of medicinal plants, natural remedies, and traditional treatment methods is evaluated from a scientific perspective. Furthermore, the prospects of traditional medicine are assessed based on recent scientific research.

Keywords: Traditional medicine, parasites, phytotherapy, helminths, medicinal plants, diagnostics, prevention.

**СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАДИЦИОННОЙ И
СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЫ В БОРЬБЕ С ПАРАЗИТАРНЫМИ
ЗАБОЛЕВАНИЯМИ**

Исмоилов Комил Туйгунович

Ассистент кафедры медицинской биологии и генетики Самаркандского
государственного медицинского университета, Узбекистан.

Абдуллаева Санобар Гайратжон кизи

Эргашев Умид Эсан угли

Сайдуллаева Шахзода Сунатилла кизи

Студенты Самаркандского государственного медицинского университета,
Узбекистан.

Аннотация: В данной статье анализируется роль современной медицины в диагностике, лечении и профилактике паразитарных инфекций, а также рассматривается зарубежный опыт. Освещаются научные основы эффективности молекулярной диагностики, лекарственных средств нового поколения и профилактических стратегий.

Также рассматривается роль народной медицины в борьбе с паразитарными заболеваниями, её исторические корни и интеграция с современной медициной. С научной точки зрения оценивается эффективность лекарственных растений, природных средств и традиционных методов лечения. Кроме того, на основе современных исследований оцениваются перспективы развития народной медицины.

Ключевые слова: Народная медицина, паразиты, фитотерапия, гельминты, лекарственные растения, диагностика, профилактика.

Kirish: Parazitar kasalliklar (gelmintozlar, protozoy infeksiyalar va boshqalar) global sog‘liqni saqlash tizimida dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan hududlarda sanitariya sharoitlarining yetarli emasligi, ichimlik suvi sifati pastligi va gigiyena qoidalariga to‘liq rioya qilinmasligi ushbu kasalliklarning keng tarqalishiga olib keladi. Zamonaviy tibbiyotda antiparazitar preparatlar samarali qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, dori vositalariga chidamlilik (rezistentlik) muammosi va nojo‘ya ta’sirlar ehtimoli alternativ yondashuvlarni izlash zaruratini tug‘diradi. Shu nuqtai nazardan, xalq tabobati va an’anaviy davolash usullarining ilmiy asosda o‘rganilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili milliardlab odamlar parazitar infeksiyalarga duchor bo‘ladi. Eng keng tarqalgan kasalliklar: Bezgak (malariya), giardioz, Askarioz, Teniarinhoz kabilar kiradi. Zamonaviy tibbiyot ushbu kasalliklarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Parazit kasalliklar inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘diruvchi omillardan biri bo‘lib, ular asosan ichak tizimi, jigar va boshqa organlarni zararlaydi.

Zamonaviy tibbiyot rivojlanganiga qaramay, ayrim hududlarda xalq tabobati hamon muhim o‘rin tutadi.

Xalq tabobati - bu asrlar davomida shakllangan, tabiiy vositalarga asoslangan davolash tizimi bo‘lib, u ko‘plab kasalliklar, jumladan parazitlar infektsiyalarini davolashda qo‘llanib kelinadi.

Metodlar (Methods): Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

Turli davlatlar tajribasi solishtirildi. JSST va xalqaro ma’lumotlar bazasi ma’lumotlaridan foydalanildi. Mazkur maqola tahliliy va umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, unda quyidagi usullardan foydalanildi:

- Ilmiy adabiyotlar tahlili (fitoterapiya va parazitologiya bo‘yicha maqolalar);
- Xalq tabobatida qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar haqidagi ma’lumotlarni taqqoslash;
- Zamonaviy ilmiy tadqiqot natijalarini tizimlashtirish.

Ma’lumotlar xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotga oid manbalardan yig‘ildi va ilmiy nuqtai nazardan baholandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Xalq tabobati qadimiy tajriba va kuzatuvlarga asoslangan bo‘lib, o‘simlik, hayvon va mineral manbalaridan olingan vositalar orqali kasalliklarni davolashni o‘z ichiga oladi. Markaziy Osiyo hududida, xususan, qadimgi tabiblar tomonidan yozilgan asarlarda parazitlar kasalliklarni davolash uchun turli dorivor o‘simliklar tavsiya etilgan. Ushbu bilimlar avloddan-avlodga og‘zaki va yozma shaklda o‘tib kelgan. So‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar xalq tabobatida qo‘llaniladigan o‘simliklarning antiparazit xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Masalan, sarimsoq (*Allium sativum*), piyoz (*Allium cepa*), qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*), qovoq urug‘i (*Cucurbita pepo*) va shuvoq (*Artemisia absinthium*) kabi o‘simliklar tarkibidagi biologik faol moddalar (alkaloidlar, flavonoidlar, efir moylari) parazitlarga qarshi ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Natija va Muhokama: Zamonaviy tibbiyotda quyidagi usullar keng qoʻllaniladi: Parazit aniqlash sxemasi: Bemor simptomlari -Laborator tekshiruv (qon, najas)-Molekulyar diagnostika (PCR)- Aniq tashxis qoʻyiladi.

1-Jadval. Parazitlarga qarshi dori vositalari va davolash jsmaradorligi

Dori nomi	Qoʻllanilishi	Samaradorlik (%)
Albendazol	Gelmintlarga qarshi	85–95%
Metronidazol	Protozoalarga qarshi	80–90%
Ivermektin	Keng spektrli	90% gacha

Parazitlarga qarshi xorij davlatlarida quyidagicha yondashuvlar mavjud;

Afrika davlatlari- Bezgakka qarshi insektitsidli toʻrlar keng qoʻllanadi. Massaviy profilaktika dasturlari mavjud

Janubiy Koreyada- Gigiyena va sanitariya yuqori darajada. Parazit kasalliklar deyarli yoʻq qilingan.

AQSh va Yevropa-Kuchli epidemiologik nazorat. Zamonaviy laboratoriyalar

Zamonaviy tibbiyot parazit kasalliklarni kamaytirishda uch asosiy yoʻnalishda samarali: Birinchi; Toza ichimlik suvi , gigiyena qoidalari, vaksinatsiya (baʼzi kasalliklar uchun). Ikkinchidan; tezkor testlar, PCR texnologiyalari, kombinatsiyalangan terapiya, dori rezistentligiga qarshi strategiyalar.

Xalq tabobatida qoʻllaniladigan asosiy davolash usullari;

shifobaxsh mahsulotlar-Sarimsoq tarkibidagi allitsin moddasi bakteriya va parazitlarga qarshi faol taʼsir koʻrsatadi. Qovoq urugʻi-gelmintlarga qarshi tabiiy vosita sifatida keng qoʻllanadi, uning tarkibidagi kukurbitin moddasining falajlovchi taʼsiri mavjud. Shuvoq oʻsimligi ichak parazitlariga qarshi samarali hisoblanadi va ayrim farmatsevtik **Fitoterapiya (oʻsimliklar bilan davolash)** Eng

keng tarqalgan usul bo'lib, damlama, qaynatma, sharbat yoki kukun shaklida qo'llaniladi.

1. Parhez va ovqatlanish terapiyasi - Ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari (achchiq, nordon yoki tolaga boy mahsulotlar) parazitlar uchun noqulay muhit yaratadi.
2. Tozalash (detoksikatsiya) usullari - Ichaklarni tozalashga qaratilgan xalqona usullar (masalan, o'simlik asosidagi klizmalar) ham qo'llaniladi.
3. Profilaktik choralar - Sarimsoq, piyoz kabi mahsulotlarni muntazam iste'mol qilish orqali parazit infeksiyalarining oldini olish mumkinligi ta'kidlanadi.

Xalq tabobatining afzalliklari quyidagilardan iborat:

Tabiiylik va nisbatan kam nojo'ya ta'sirlar;

- Arzonligi va keng mavjudligi;
- Profilaktik ahamiyatining yuqoriligi.

Biroq, quyidagi cheklovlar mavjud:

- Dozalash va qo'llash me'yorlarining aniq standartlashmaganligi;
- Ba'zi usullarning klinik sinovlardan to'liq o'tmaganligi;
- Og'ir holatlarda faqat xalq tabobatiga tayanish xavfliligi.

Hozirgi kunda ilmiy tibbiyot va xalq tabobatini uyg'unlashtirish (integrativ tibbiyot) muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Bu yondashuvda an'anaviy usullar ilmiy asosda tekshiriladi va xavfsiz hamda samarali bo'lganlari zamonaviy davolash protokollariga qo'shiladi.

Xulosa. Parazit kasalliklarga qarshi kurashishda zamonaviy tibbiyotning o'rni beqiyosdir. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki: Profilaktika choralarini kuchaytirish, zamonaviy diagnostikani joriy etish hamda aholi savodxonligini oshirish ushbu kasalliklarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Parazitar kasalliklarga qarshi kurashishda xalq tabobati muhim qo'shimcha vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, profilaktika va yengil shakllarda u samarali bo'lishi ehtimoli yuqori. Biroq, uni zamonaviy tibbiyot yutuqlari bilan uyg'un holda qo'llash, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va xavfsizlik choralariga

qat'iy rioya qilish zarur. Shu orqali parazitlar kasalliklarining oldini olish va davolash samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. *Helminth control in school-age children*. Geneva, 2012.
2. Cowan M.M. Plant products as antimicrobial agents. *Clinical Microbiology Reviews*, 1999.
3. Ekor M. The growing use of herbal medicines. *Frontiers in Pharmacology*, 2014.
4. Sofowora A. *Medicinal Plants and Traditional Medicine in Africa*. 2008.
5. Hotez P.J. et al. Helminth infections: the great neglected tropical diseases. *Journal of Clinical Investigation*, 2008.
6. Abdurahmonov A. *Dorivor o'simliklar va ularning xususiyatlari*. Toshkent, 2010.
7. Bruneton J. *Pharmacognosy, Phytochemistry, Medicinal Plants*. 1999.
8. Ismoilov K. T. et al. COMMON INTERNAL PARASITES AND THEIR TAXONOMY AMONG YOUNG CHILDREN IN UZBEKISTAN //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – T. 3. – №. 06. – C. 190-196.
9. Ismoilov K.T., Yunusova Z. T. “Biologiya darslarida Ibn Sino ilmiy merosi va qo'shimcha qiziqarli ma'lumotlardan foydalanishning ahamiyat” “O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi respublika 18-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn Konferensiya materiallari 22 qism Toshkent, 2020y